

MAKTABGACHA TA’LIMDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Ergasheva Sayyora Yodgorjon qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti namangan filiali magistranti

E-mail: ergashevasayyora2004@gmail.com Tel: +998508830400

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21136741>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimida multimedia vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini keng yoritilgan. Xususan, multimedia texnologiyalarining (audio, video, animatsiya va interaktiv dasturlar) ta’lim jarayoniga joriy etilishi, ularning bolalarning bilish faoliyati, tafakkuri, nutqi hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o’rni tahlil qilingan.

Shuningdek, maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari inobatga olingan holda multimedia vositalaridan samarali foydalanish usullari ko’rib chiqilgan. Multimedia orqali ta’lim berishning afzalliklari — bolalarning diqqatini jalb etish, o’quv materiallarini tez va oson o’zlashtirish, mustaqil fikrlashni shakllantirish kabi jihatlar asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: multimedia vositalari, raqamli texnologiyalar, interaktiv ta’lim, pedagogik texnologiyalar, raqamli muhit, vizual o’rganish, innovatsion yondashuv, tarbiyachi kompetensiyasi, didaktik vositalar.

Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются теоретические и практические аспекты использования мультимедийных средств в системе дошкольного образования. В частности, анализируется внедрение мультимедийных технологий (аудио, видео, анимация и интерактивные программы) в образовательный процесс, их роль в развитии познавательной деятельности, мышления, речи и творческих способностей детей.

В статье также рассматриваются методы эффективного использования мультимедийных средств с учетом психологических особенностей детей дошкольного возраста. Обосновываются преимущества обучения с помощью мультимедиа, такие как привлечение внимания детей, быстрое и легкое усвоение учебного материала и формирование самостоятельного мышления.

Ключевые слова: мультимедийные средства, цифровые технологии, интерактивное обучение, педагогические технологии, цифровая среда, визуальное обучение, инновационный подход, компетентность воспитателя, дидактические средства.

Abstract: This article comprehensively discusses the theoretical and practical aspects of using multimedia tools in the preschool education system. In particular, it analyzes the integration of multimedia technologies (audio, video, animation, and interactive software) into the educational process and examines their role in developing children's cognitive activity, thinking skills, speech, and creative abilities.

Furthermore, the article considers effective methods of using multimedia tools while taking into account the psychological characteristics of

preschool-aged children. The advantages of multimedia-based education are substantiated, including attracting children's attention, facilitating faster and easier assimilation of educational materials, fostering independent thinking, and providing other educational benefits.

Keywords: multimedia tools, digital technologies, interactive learning, pedagogical technologies, digital environment, visual learning, innovative approach, educator competence, didactic tools.

Kirish. Hozirgi kunda yangi ta’lim paradigmasi ta’lim muassasalari o’qituvchilari bilim, ko’nikma va malakalarini o’qitishning axborot berish darajasidan shaxs shakllanishidagi rivojlanishini boshqarish darajasiga ko’tarishdan iborat bo’ladi. Demak, bu jarayonda axborot texnologiyalarining alohida o’rni mavjud, u ta’lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko’tarishda yetakchi vosita hisoblanadi hamda davlat va jamiyat ehtiyojlariga mos tarzda javob beradi.

Bu maqsadga erishishning samarali vositalaridan biri “o’qitishning ilg’or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta’limning texnik va axborot vositalarini o’quv jarayoniga joriy etish”dan iborat. Bu o’zgarishlar ko’p jihatdan ta’lim berishning an’anaviy sur’ati va yangi bilimlarning muntazam ortib borishi tendensiyasi o’rtasidagi jiddiy ziddiyatlarni hal etish zarurati bilan bog’liq.

Yangi O’zbekistonning 2022-2026-yillarga mo’ljallangan taraqqiyot strategiyasining to’rtinchi bo’limida ta’kidlangan, maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish. Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan rivojlantirish va ularni zamonaviy kompyuterlar, elektron doskalar, bolalar uchun mo’ljallangan planshetlar, mashg’ulotlar uchun videoproektorlar bilan jihozlash ta’lim sifatini yaxshilash uchun xizmat qilishga joriy etildi. Milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta’limi va maktabgacha ta’lim tizimida davlat va nodavlat maktab, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini yaratish kasb etdi. Bu esa o’z navbatida ularning yuqoridagi zamonaviy dasturlar ta’minlash vazifa sifatida belgilandi. Shuningdek maktabgacha ta’lim tashkilotlarida didaktik resurs materiallar bazasi yanada boyishga imkoniyat tug’uldi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’lim-tarbiya jarayonlarini yanada takomillashuvi ta’limning masofaviy shakli, elektron darsliklarning yaratilishi, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiya elementlari, internet materiallari, turli didaktik o’yinlardan foydalanish, mashg’ulotlar jarayonida erkin muloqot, bilimlarni puxta o’zlashtirishga asosiy zamin hozirlaydi.

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning dastlabki bosqichi bo’libgina qolmay, balki ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy jihatdan boy shaxsni shakllantiruvchi birinchi pog’ona hamdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim va tarbiya jarayonini qanchalik yuqori saviyada tashkil etilsa, tarbiyalanuvchi bolalar ta’limning keyingi bosqichida qiyinchiliksiz bilim olishlariga imkoniyat yaratiladi.

Sh.M.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohotlar maktabgacha ta’lim tizimida misli ko’rilmagan o’zgarishlar bo’lishiga asos bo’ldi. Chekka hududlardagi maktabgacha ta’lim tashkilotlariga berilgan e’tibor tufayli,

ularga ham zamonaviy texnik vositalarning joriy etilganligi, buning natijasida eng so‘nggi rusumli kompyuterlar, electron doskalar, mobil qurilmalar, televizorlardan foydalanish imkoniyatlarini berdi.

O‘zbekiston kelajagini qurishda asosiy ishtirokchi bo‘ladigan bolalarni yuksak ma’naviyatli bo‘lib tarbiyalashga alohida e’tibor berilmoqda. o‘quv faoliyatidan tashqari multimedia taqdimotlari bolalarning bilimlarini mustahkamlash, esda saqlash, vizual aloqalar orqali ko‘rish, tinglash, ijtimoiy hayyotga moslashishiga yordam beradi. Ularda idrok, diqqat, xotira, fikrlash kabi intellektual faoliyat uchun zarur bo‘lgan aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ham muvaffaqiyatli qo‘llanilishi mumkin.

Asosiy qism. Globallashuv sharoitida jamiyatimizning turli sohalarida, xususan ta’lim jarayonida juda katta chuqur va tarkibiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Texnologiyalarning jadal rivojlanib borishi natijasida an’anaviy yondashuvlar o‘rnini bosqichma – bosqich innovatsion, interaktiv va raqamli texnologiyalar asosidagi yondashuvlarga bo‘shatib bermoqda. Bu o‘zgarishlar esa o‘z navbatida maktabgacha ta’lim tizimida ham zamonaviy pedagogic vositalardan keng tarzda foydalanishni taqozo etmoqa. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi, aynan ushbu davrda bolaning psixologik rivojlanishi, bilish faoliyati, idrok eta olishi hamda dunyoqarashi shakllanadi. Shu bois ham maktabgacha yoshdagi bolalarga yoshidan kelib chiqqan holatda mos metod va vositalarni to‘g‘ri tanlay olish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ana shunday samarali vositalar sifatida multimediya vositalari ham alohida ahamiyat kasb etadi.

“Multimedia” atamasi birinchi marta, u ma’lumot taqdim etishning turli turlari va shakllaridan foydalangan holda o‘sha davrdagi ekstravagant teatr tomoshalarini tavsiflash uchun ishlatilgan: slaydlar, kino, video, audio fragmentlar, yorug‘lik effektlari va jonli musiqa. “Multimedia” atamasi Bob Goldshteyn tomonidan Sautgemptonda (Buyuk Britaniya janubidagi shahar va port) “LightWorks at L’Oursin” shousining ochilishini reklama qilish uchun ishlatilgan. Bu oddiy yorug‘lik tasviri edi, ammo vaqt o‘tishi bilan bu atamaning semantik yuki o‘zgardi. Bu atama allaqachon yangi, zamonaviy idrokga yaqin ma’noga ega edi. Variety jurnalining muxbiri Richard Albarino Bob Goldshteyn shousini tasvirlagan maqolasida “multimedia” atamasini ishlatgan. Ikki yil o‘tgach, 1968-yilda “multimedia” atamasi hukumat maslahatchisi Devid Saverga berildi va bu atama bilan u “LightWorks at L’Oursin” shousining prodyuserlaridan biri bo‘lgan rafiqasi Iris Savierning ishini tasvirlab berdi. Asr boshlarida multimedia deganda bir nechta proyektorlardan olingan statik yoki dinamik tasvirlarga asoslangan, tovush yoki jonli musiqa jo‘rligidagi taqdimotlar tushuniladi. Biroq, “multimedia” atamasi o‘zining zamonaviy ma’nosiga ega bo‘ldi. McGraw-Hill (Amerika nashriyot, radioeshittirish, moliyaviy va biznes xizmatlarini ko‘rsatadigan kompaniya) birinchi nashrida “Multimedia: buni amalga oshirish” maqolasi chop etildi, unda shunday deyilgan: “Multimedia - bu matn, grafika, animatsiya, ovozning turli kombinatsiyasi. va kompyuter yordamida uzatiladigan video. Agar siz foydalanuvchiga (loyihangiz tomoshabiniga) ushbu elementlarni boshqarishga ruxsat bersangiz, multimedia interaktiv bo‘ladi, u interaktiv multimediyaga aylanadi.

Elementlarni ulash strukturasini - navigatsiyani taqdim etganingizda, interaktiv multimedia gipermediaga aylanadi. Hozirgi vaqtda millionlab odamlar ongida multimedia Internet bilan uzviy bogʻlangan. Bu jarayon birinchi yarmida, “multimedia” bozorga kirganida boshlandi - yuzlab megabayt hajmdagi video, audio va foto maʼlumotlar bilan ishlash imkonini beradigan kompakt diskli qurilmalar bilan jihozlangan kompyuterlar. Yangi texnologiyalar, jumladan, multimediasining rivojlanish surʼatlari haqida gapirar ekan, xorijiy ekspertlar taʼkidlashicha, Butunjahon Internet tarmogʻi - Internet ochilganidan beri va 1980-yilda undan foydalanishning birinchi qadamlarigacha, yaʼni taxminan oʻn yil davomida uni yaratuvchilarning ongi "shakllanish" bosqichida edi. Shundan keyingina, ayniqsa oxiridan boshlab, yangi texnologiyalar amaliy qoʻllanilishini topa boshladi. Bugungi internet foydalanuvchilari yangi multimedia inqilobining markazida.

Multimedia vositalari – bu matn, grafika, audio, video, va animatsion elementlarni oʻz ichiga qamrab oladi. Ushbu vositalar orqali bolalarga taqdim eʼtilgan murakkab oʻquv materiallarini osonroq qabul qiladi. Multimedia vositalari maktabgacha yoshidagi bolalarning diqqatini uzoqroq saqlab turadi hamdaaa bilishga boʻlgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Shu bilan birga nafaqat pedagogning samaradorligini oshiribgina qolmay bolaning mustaqil oʻrganish koʻnikmalarini shakllantirish imkonini ham beradi.

Maktabgacha taʼlim tizimida multimedia vositalaridan foydalanishi bugungi kunda taʼlim sifatini oshirish, bolalarning qiziqishlarini kuchaytirish, bilish jarayonlarini kuchaytirish hamda ularning dunyo qarashlarini rivojlantirish uchun xizmat qilyapti. Taʼlim jarayonida multimediya vositalaridan foydalanishning koʻplab ijobiy tomonlari mavjud. Jumladan multimedia vositalari bolalarning idrok qilish jarayonini yengillashtiradi. Shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalar odatda koʻrish va eshitish orqali oʻrganishga moyil boʻlishadi. Shuning uchun rangli tasvirlar, animatsion ertaklar va ovozli materiallar ularda mavzuni tushunishini osonlashtiradi hamda uzoq muddat xotirada saqlanib qolishini taminlaydi.

Multimedia vositalari bolalarning diqqatini jamlashga va darsga boʻlgan qiziqishining oshirishga xizmat qiladi. Koʻp xollarda bolalar anʼanaviy usullarda baʼzi bolalar tezda zerikib qolishi mumkin. Ammo rang barang va harakatli multimedia vositlari bunday bolalarning faol ishtirokini taʼminlaydi va taʼlim jarayonini qiziqarli qiladi.

Multimedia vositalari orqali bolalarning ijodiy fikrlash va tasavvur qilish koʻnikmalari rivojlanadi. Turli animatsiyalar qisqa video roliklar va taʼlimiy dasturlar bolalarni mustaqil fikrlash, muammolarni erkin hal qila olish hamda yangi gʻoyalarni shakllantirishga turtki boʻladi.

Shuningdek, oʻz navbatida pedagog uchun ham multimedia vositalari katta imkoniyatlar yaratadi. Bu orqali pedagog dars jarayonidagi murakkab mavzularni ham soda tarzda bolalarga yetkazish imkoniyatiga ega boʻlishadi. Multimediya vositalari yordamida taʼlim berish jarayoning sifati oshadi va bolalar bilan ishlash osonlashadi.

Abdulla Avloniy tarbiya va taʼlimda koʻrgazmalilik va tushunarli usullarni juda muhim deb hisoblagan. U bolalarga bilim berishda faqat ogʻzaki tushuntirish emas, balki hayotiy misollar, koʻrgazmali vositalar va amaliy

mashgʻulotlar orqali oʻqitish samarali ekanini taʼkidlagan. Bu yondashuv bugungi kunda multimedia vositalarining asosiy tamoyillariga mos keladi.

Mahmudxoʻja Behbudiy yangi usul maktablarida taʼlimni zamonaviylashtirish tarafdori boʻlgan. U oʻqitishda koʻrgazmali qurollar, yangi metodlar va bolaga tushunarli uslub qoʻllash zarurligini ilgari surgan. Uning qarashlari bugungi multimedia asosidagi interaktiv darslarga yaqin hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlab oʻtish joizki maktabgacha yoshidagi bolalarning taʼlim tizimida multimedia vositalaridan foydalanish ularning intellectual, aqliy va ijodiy rivojlanishida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Multimedia vositalari yordamida taʼlim olish jarayoni yanada qizgʻin, tushunarli va samarali tarzda tashkil etiladi. Multimediyadagi turli xil rangli tasvirlar audio matnlar bolalarning diqqatini jamlashga, murakkab boʻlgan mavzularni esa sodda va tushunarli tarzda oʻzlashtirish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Oʻqituvchi nashriyoti, 2019. – (qayta nashr).

2. Mahmudxoʻja Behbudiy. Taʼlim va jadidchilik islohotlariga oid maqolalar toʻplami. – Toshkent: Maʼnaviyat nashriyoti, 2004.

3. Maktabgacha taʼlim pedagogikasi (darslik). – Toshkent: Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi nashri, 2020.

4. Xayrullayeva. N. (2025, October). Technology for the development of gender tolerance in students on the basis of an ethnopedagogical approach (on the example of pedagogical sciences). In Scottish International Conference on Multidisciplinary Research and Innovation–SICMRI 2025 (Vol. 1, No. 2, pp. 37-41).

5. Khayrullayeva, N.J. (2024). The Influence of Persian Classical Literature on English Literature. International Journal of Language Learning and Applied Linguistics, 3(4), 107-111.

6. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (oʻquv qoʻllanma). – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2021.